



# Samarqand viloyatida

## kichik tadbirdorlik

(dastlabki ma'lumotlar)

2020– yil yanvar–sentabr

2020– yilning yanvar–sentabrida kichik tadbirdorlikning YaHMdagи ulushi **75,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirdorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga **11,3** birlikni tashkil qildi.


2020– yilning yanvar–sentabrida **6558** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,4** foizga ko'paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda 2697 ta, sanoatda 1237 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 1035 ta, yashash va ovqatlanishda 597 ta, qurilishda 315 ta, tashish va saqlashda 124 ta tashkil etilgan.

### 2020– yil yanvar–sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Savdo**  
**41,1 %**



**Sanoat**  
**18,9 %**



**Qurilish**  
**4,8 %**



**Qishloq, o'rmon  
va baliq xo'jaligi**  
**15,8 %**



**Yashash va  
ovqatlanish bo'yicha  
xizmatlar**  
**9,1 %**



**Tashish va saqlash**  
**1,9 %**

## Yanvar–sentabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

	O'Ichov birligi	2019– y.	2020– y.	Farqi (+;-)
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	birlikda	24 791	31 567	6776
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni</b>	birlikda	6 166	6 558	392
<b>Kichik tadbirkorlikning ulushlari:</b>				
YaHMda	%	75,8	75,4	-0,4
Sanoatda	%	41,1	43,0	1,9
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida	%	96,1	96,6	0,5
Investitsiyada	%	63,3	72,4	9,1
Qurilishda	%	98,7	87,5	-11,2
Savdoda	%	86,9	77,5	-9,4
Xizmatlarda	%	71,8	70,2	-1,6
Yuk tashishda	%	96,5	92,8	-3,7
Yuk aylanmasida	%	96,3	82,0	-14,3
Yo'lovchi tashishda	%	94,7	97,4	2,7
Yo'lovchi aylanmasida	%	97,6	98,8	1,2
Eksportda	%	74,7	57,2	-17,5
Importda	%	66,1	46,4	-19,7



### 2020– yilning yanvar–sentabrida kichik tadbirkorlikning tarmoqlar bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari, % da




2020– yilning yanvar–sentabr oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'pi Samarqand shahrida –1564 ta, Samarqand tumanida –535 ta, Pastdarg'om tumanida –532 ta, Urgut tumanida –521 ta, Kattaqo'rg'on tumanida –426 ta va Ishtixon tumanida –399 tani tashkil etgan. Shuningdek, past ko'rsatkich Qo'shrabot tumanida –204 tani va Paxtachi tumanida –183 tani tashkil etgan.

## Tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019– yil yanvar–sentabr	2020– yil yanvar–sentabr	Farqi (+;-)
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>6166</b>	<b>6558</b>	<b>392</b>
<i>shaharlar:</i>			
Samarqand sh.	1881	1564	-317
Kattaqo'rg'on sh.	175	252	77
<i>tumanlar:</i>			
Oqdaryo tumani	232	271	39
Bulung'ur tumani	217	333	116
Jomboy tumani	285	297	12
Ishtixon tumani	374	399	25
Kattaqo'rg'on tumani	304	426	122
Qo'shrabot tumani	128	204	76
Narpay tumani	149	231	82
Payariq tumani	320	303	-17
Pastdarg'om tumani	517	532	15
Paxtachi tumani	162	183	21
Samarqand tumani	557	535	-22
Nurobod tumani	190	228	38
Urgut tumani	411	521	110
Toyloq tumani	264	279	15



**2020– yil yanvar–sentabr holatiga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha ulushi, % da**




2020– yilning yanvar–sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulushi Samarqand shahri –23,9 %, Samarqand tumani –8,2 %, Pastdarg'om tumani –8,1 %, Urgut tumani –7,9 %, Kattaqo'rg'on tumani –6,5 %, Ishtixon tumani –6,1 %, Bulung'ur tumani -5,1 %, Payariq tumani –4,6 % va Jomboy tumani –4,5 % ga teng.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

	2019– yil yanvar–sentabr	2020– yil yanvar–sentabr	Farqi (+;- )
Jami	6 166	6 558	392
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	475	1 035	560
Sanoat	1 578	1 237	-341
Qurilish	602	315	-287
Savdo	2 084	2 697	613
Tashish va saqlash	157	124	-33
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	672	597	-75
Axborot va aloqa	128	113	-15
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	82	106	24
Boshqa faoliyat turlari	388	334	-54

**Ma'lumot uchun:** 2020– yilning yanvar–sentabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'p salmog'i, birlikda:




## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	Farqi (+;-)
<b>Samarqand sh.</b>	1 881	1 564	-317
<b>Samarqand tumani</b>	557	535	-22
<b>Pastdarg'om tumani</b>	517	532	15
<b>Urgut tumani</b>	411	521	110
<b>Kattaqo'rg'on tumani</b>	304	426	122
<b>Ishtixon tumani</b>	374	399	25
<b>Jomboy tumani</b>	285	297	12
<b>Payariq tumani</b>	320	303	-17
<b>Bulung'ur tumani</b>	217	333	116
<b>Oqdaryo tumani</b>	232	271	39

2020– yilning yanvar–sentabrida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Samarqand shahrida –1564 taga yetdi.




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan tuman va shaharlar, birlikda





## Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-sentabr holatiga ko'ra\*



2020– yilning yanvar–sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tumanlar bo'yicha eng ko'p ko'satkich Samarqand shahrida 17,5 birlik, Payariq tumanida 13,2 birlik, Bulung'ur tumanida 12,3 birlik, Kattaqo'rg'on shahrida 12,2 birlik, Samarqand tumanida 12,0 birlik, Jomboy tumanida 11,6 birlik, Ishtixon tumanida 11,5 birlik, Nurobod tumanida 10,8 birlikni tashkil etgan. Narpay tumanida esa ushbu ko'satkich eng past bo'lib 6,8 birlikga to'g'ri keldi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




## 2020– yilning yanvar–sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)\*



\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)




## 2020– yilning yanvar–sentabrida tuman va shaharlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni\* (har 1000 aholiga, birlikda)



2020– yilning yanvar–sentabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) tuman va shaharlar bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Samarqand shahrida 17,5 birlik, Payariq tumanida 13,2 birlik, Bulung'ur tumanida 12,3 birlik, Kattaqo'rg'on shahrida 12,2 birlik, Samarqand tumanida 12,0 birlik, Jomboy tumanida 11,6 birlik tashkil etdi.

\* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

## Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)



- **Eng yuqori ko'rsatkich**  
Samarqand shahrida -17,5 birlik;

- **O'rtacha ko'rsatkich**  
Nurobod tumanida -10,8 birlik;


- **Eng past ko'rsatkich**  
Narpay tumani -6,8 birlik;

### Kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushini pasayish dinamikasi, yanvar–sentabr holatiga ko'ra, % da


2020- yilning yanvar-sentabrida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 75,4 % ni tashkil qildi. (2019- yilning yanvar-sentabrida 75,8 %).


YaHMning o'tgan yilga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulusining oshishi bilan izohlanadi.

**2020- y.**



**2019- y.**





**2020– yilning yanvar–sentabrida kichik tadbirkorlikni tuman va shaharlar kesimida iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridagi ulushi, (%) da**

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Investitsiya
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>43,0</b>	<b>87,5</b>	<b>70,2</b>	<b>72,4</b>
<i>shaharlar:</i>				
Samarqand sh.	27,4	82,2	51,4	65,7
Kattaqo'rg'on sh.	34,9	92,8	95,5	92,4
<i>tumanlar:</i>				
Bulung'ur tumani	96,6	100,0	94,1	85,2
Jomboy tumani	30,7	100,0	90,6	44,8
Ishtixon tumani	28,2	100,0	97,0	89,9
Kattaqo'rg'on tumani	57,7	100,0	98,3	49,3
Narpay tumani	7,3	100,0	97,7	59,5
Nurobod tumani	100,0	100,0	98,7	73,8
Oqdaryo tumani	100,0	99,2	97,6	89,1
Payariq tumani	36,7	100,0	97,1	66,6
Pastdarg'om tumani	65,1	60,7	91,9	97,5
Paxtachi tumani	89,9	84,5	94,5	51,2
Samarqand tumani	71,2	82,5	92,5	77,3
Toyloq tumani	33,4	100,0	95,5	77,2
Urgut tumani	81,8	66,9	97,2	92,2
Qo'shrabot tumani	100,0	100,0	97,7	55,9

Tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi eng ko'p:

**Sanoatda-**

Nurobod (100,0 %),  
Oqdaryo (100,0 %),  
Qo'shrabot (100,0 %),  
Bulung'ur (96,6 %),  
Paxtachi (89,9 %) va  
Urgut (81,8 %)  
tumanlarida.

**Qurilishda-**

Bulung'ur, Jomboy,  
Ishtixon, Kattaqo'rg'on,  
Narpay, Nurobod,  
Payariq, Toyloq va  
Qo'shrabot  
(100,0 %) va Oqdaryo  
(99,2 %) tumanlarida.

**Xizmatlarda-**

Nurobod (98,7 %),  
Kattaqo'rg'on (98,3 %),  
Qo'shrabot (97,7 %),  
Odaryo (97,6 %), Urgut  
(97,2 %), Payariq (97,1 %),  
Ishtixon (97,0 %) va  
tumanlarida.




## Kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2020- yilning yanvar-sentabrida

- 1 Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 5255,0 mlrd.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishning 43,0%).
- 2 5774,0 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiyligi 72,4 %) o'zlashtirildi va 2019 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 14,1 %ga o'sdi.
- 3 3705,8 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiyligi 87,5 %) bajarildi va 2019 yilning yanvar-sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 94,4 %ni tashkil qildi;
- 4 7119,1 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (xizmatlar hajmining 70,2 %), 2019 yilning yanvar-setabrga 100,0 %ni tashkil qilgan;
- 5 chakana tovar aylanmasi umumiyligi 77,5 % yoki 8941,9 mlrd. so'm o'sish sur'ati 91,8 %ni tashkil qildi.
- 6 125,8 mln. AQSH dollarini (umumiyligi 57,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi.
- 7 avtomobil transporti yuk aylanmasining 97,1 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 82,0 %)ni tashkil qildi.
- 8 yo'llovchi aylanmasining esa 89,4 %ga (umumiyligi yo'llovchi aylanmasining 98,8 %)ni tashkil qildi.




## Kichik tadbirkor subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, xizmatlar) eksportining, jami eksportdagi ulushi, % da



2020– yil yanvar–sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushini Kattaqo'rg'on tumanida –100,0%, Nurobod tumanida –100,0 %, Oqdaryo tumani-da –100,0 %, Qo'shrabot tumanida –100,0 %, Pastdarg'om tumanida –5,8 %, Paxtachi tumanida –95,5 %, Bulung'ur tumanida –90,9 % ni, eng past ko'rsatkich Toyloq tumanida – 21,7 % Samarqand shahrida –21,5 % ni tashkil etdi.




## Kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining, jami importdagi ulushi, % da



2020– yil yanvar–sentabr oylarida tuman va shaharlar bo'yicha kichik tadbirdorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (tovar, xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Qo'shrabot tumanida –100,0 %, Payariq tumanida –100,0 %, Kattaqo'rg'on shahrida –94,6 %, Bulung'ur tumanida –92,6 %, Kattaqo'rg'on tumanida –90,3 %, Urgut tumanida –89,6 %, Oqdaryo tumanida –83,2 %, Paxtachi tumanida –80,9 %, Ishtixon tumani –70,9 %. Eng past ko'rsatkich Samarqand shahrida –29,5 % ni tashkil etdi.




## 2020– yilning yanvar–sentabrida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd.so'm



Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Samarqand shahri (1538,1 mlrd. so'm), Urgut tumanida (878,7 mlrd. so'm), Samarqand tumanida (758,0 mlrd. so'm), Jomboy tumanida (447,5 mlrd. so'm), Pastdarg'om tumanida (271,3 mlrd. so'm), Bulung'ur tumanida (268,1 mlrd. so'm) va Oqdaryo (212,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Narpay tumanida (29,7 mlrd. so'm) va Qo'shrabot tumanida (28,3 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.






Tuman va shaharlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Oqdaryo tumani (100,0 %), Nurobod (100,0 %), Qo'shrabot (100,0 %), Bulung'ur (96,6 %), Paxtachi (89,9%), Urgut (81,8 %), Samarqand (71,2%), Pastdarg'om (65,1%) tumanlari tashkil etdi.

Ishtixon tumanida (28,2 %), Samarqand shahrida (27,4%) va Narpay tumanida (7,3 %) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.




## 2020– yilning yanvar–sentabrida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati



Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Samarqand shahrida – 2261,0 mlrd. so'm (2019– yilning yanvar–sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 74,1 %), Urgut tumanida 1221,3 mlrd. so'm (101,3%), Pastdarg'om tumanida 667,8 mlrd. so'm (104,1 %), Kattaqo'rg'on shahri 552,5 mlrd. so'm (100,1%), Bulung'ur tumani 493,0 mlrd. so'm (87,0 %) va Samarqand tumani 479,5 mlrd. so'm, (101,4 %).



## 2020– yilning yanvar–sentabrida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko`p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Samarqand shahri 1184,9 mlrd. so'm (2019– yilning yanvar–sentabriga nisbatan o'sish sur'ati 91,6 %), Oqdaryo tumani 340,8 mlrd. so'm (103,0 %), Payariq tumani 266,7 mlrd. so'm (100,5 %), Urgut tumani 235,8 mlrd. so'm (102,5%), Jomboy tumani 205,7 mlrd.so'm (93,3 %), Ishtixon tumani 204,9 mlrd. so'm (103,3 %), Pastdarg'om tumani 193,5 mlrd. so'm (101,0 %) Toyloq tumani 168,8 mlrd.so'm (77,8 %).





## 2020– yilning yanvar–sentabrida tuman va shaharlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o’sish sur’ati




Tuman va shaharlar bo`yicha eng ko’p xizmatlar hajmi Samarqand shahri 2981,7 mlrd. so’m (2019– yilning yanvar–sentabriga nisbatan o’sish sur’ati 99,1%), Urgut tumani 398,7 mlrd. so’m (102,1 %), Pastdarg'om tumani 402,2 mlrd. so’m (110,9 %), Samarqand tumani 368,9 mlrd. so’m (104,0 %), Kattaqo'rg'on tumani 323,4 mlrd. so’m (101,0 %), Toyloq tumani 307,2 mlrd. so’m (100,4 %), Ishtixon tumani 287,9 mlrd. so’m (100,8 %), Payariq tumani 269,6 mlrd. so’m (101,2 %).



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2020– yil III chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan taqdim etilgan oxirgi yillik hisobotda mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi mavjudlari bo'yicha tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda **1255** ta respondentlar ishtirok etdi.


### **2020– yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi\* , % da**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar savdoda –37,5 % (470 ta), xizmatlar sohasidagi ulushi –32,7 % (411 ta), sanoatda –17,6 % (221 ta), qurilishda –9,0 % (113 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida –3,2 % (40 ta) ni tashkil etdi.

\* oxirgi yillik statistik hisobotga muvofiq mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumga ega bo'lган kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha.

**2020– yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotda mahsulot  
(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof tushumi  
bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va  
mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020– yil III chorak bo'yicha oxirgi yillik hisobotida  
mahsulot(tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan sof  
tushumi bo'lgan kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona  
va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020– yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi sanoat sohasida –16,3 punktga, xizmatlar sohasida –11,5 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida –10,4 punktga, savdoda sohasida –2,7 punktga pasayishi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda xizmatlar sohasida –11,0 punktga, sanoat sohasida –7,7 punktga, savdoda sohasida –3,2 punktga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida –1,2 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholaydigan korxonalar ulushining o'sishi kuzatildi.


### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning 2019– 2020– yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2020– yilning III choragida, oxirgi hisobot yilida mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan tushgan sof tushumi mavjudlari bo'yicha o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatni yaxshilanishiga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida –11,0 punktga, qurilish korxonalarda –7,3 punktga savdo sohasida –3,7 punktga oshgan.

Shu bilan birga, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida –14,0 punktga, savdo sohasida –4,5 punktga, xizmatlar sohasida –0,6 punktga yaqin uch oyda ularning iqtisodiy vaziyati o'zgarishsiz qolishiga ishongan korxonalar ulushi ko'paygan.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyat yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi qurilish korxonalarda –7,8 punktga, sanoat sohasida –4,5 punktga, savdo sohasida –0,9 punktga kamayishi kuzatilda.




### Oxirgi hisobot yilida sof tushumi mavjud bo'lgan korxonalarning 2019– 2020– yillarda III chorakdagi iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda baholanishi, % da






2020– yil III choragi yakunlariga ko'ra yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati kuzatildi, unda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 182 ta respondentlar qatnashgan. Shundan savdoda –74 ta (ishtirok etgan respondentlarning umumiyligi sonining 40,7%), xizmatlarda –36 ta (19,8%), sanoat korxonalarida –35 ta (19,2%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida –28 ta (15,4%) va qurilishda –9 ta (4,9%).

### 2020– yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da






**2020– yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda**



**2020– yil III chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning tuman va shaharlar bo'yicha taqsimlanishi, % da**




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar kuzatuvi ma'lumotlariga ko'ra, 2020–yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslaganda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida -28,0 punktga, qurilishda -16,6 punktga, sanoat sohasida -10,4 punktga o'sishi kuzatildi.

Shu bilan birga, joriy yilning III choragida o'tgan yilning shu davriga nisbatan iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholaydigan deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha korxonalar ulushining ko'payishi kuzatildi.

Joriy yilning III choragida, o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda qurilishda -22,2 punktga, savdoda sohasida -15,1 punktga, xizmatlar sohasida -12,2 punktga, sanoat sohasida -10,4 punktga qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida -4,7 punktga iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalar ulushining pasayishi kuzatildi.




### 2019–2020–yillar III chorakdagi yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar faoliyatini kuzatuvi natijalariga ko'ra, 2020– yilning III choragini o'tgan yilning shu davri bilan taqqoslaganda, yaqin uch oy ichida iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga ishongan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida –25,2 punktga, qurilish sohasida –16,7 punktga, sanoat korxonalarida –1,3 punktga, savdo sohasida –0,3 punktga oshdi.

Shuningdek, o'tgan yil bilan taqqoslaganda, yaqin uch oydag'i iqtisodiy vaziyat o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaydi deb hisoblagan korxonalar ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi korxonalarida –17,4 punktga, qurilish korxonalarida –22,2 punktga, xizmatlar sohasida –1,6 punktga, savdo sohasida –0,5 punktga kamaydi, hamda sanoat korxonalarida –3,1 punktga oshdi.

Yaqin kelajakda iqtisodiy vaziyatni yomonlashishini baholagan korxonalar ulushi deyarli barcha iqtisodiy faoliyat turlarida o'zgarishsiz qolgan.



### 2019– 2020– yil III choragida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin uch oyda iqtisodiy vaziyatini baholash,% da

